

RESEARCH ARTICLE

Sharif Rizo's Translation Activities

Dostonbek Ahmadov

4th-year Student Tashkent State University of Uzbek Language and Literature Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 39-42

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the translation activity of Sharif Rizo, who lived and worked during the 1920s–1940s of the twentieth century. It considers key facts of his biography and carries out a comparative analysis of selected aspects of his translations with the original works, allowing the distinctive features of his craftsmanship to be identified.

KEY WORDS

Translation, history of translation, Sharif Rizo, the Kokand literary milieu, stylistic adaptation.

INTRODUCTION

Cho'lpon bir maqolasida bizda tarjima ishining ko'p hollarda qadr topmasligini ta'kidlab, bu kasb egalarini "ko'laga (ko'lanka)da qol-ganlar"ga o'xshatgandi. Rost, biz o'zbek realistik tarjima maktabi-ning ilk bosqichi – XX asrning 20–40-yillari tarjimachiligi haqida gapir-ganda, Cho'lpon, Siddiqiy-Ajziy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarnigina yodga olamiz. Bois, Mannon Ro'iq, Oltoy... sin-ga-ri tarjimonlarni tanimaymiz. Holbuki yuqorida ismi sanalganlar o'z vaqtida tarjimachiligimiz rivojiga katta hissa qo'shgan. Shu "ko'la-ga"da qolib ketayotgan fidoyilar safida Sharif Rizo ham bor.

XX asr 30–40-yillar o'zbek madaniy hayotida publitsist, jamoat arbobi, folklorshunos, muharrir, tarjimon Sharif Rizo alohida o'rin egal-laydi. U 1909-yil 3-martda Qo'qonning O'rdamalik mahallasida bog'bon-dehqon oilasida dunyoga keldi. 5–6 yoshlarida Qo'qondagi Ahror-xo'ja domladan ilk saboqlarni olgan bola 9 yoshida ota-onasidan yetim qoldi. 1918–1920-yillarda Qozon shahridan kelgan no'g'ay muallimi Ismoil Donskoy tomonidan shaharning Yog' bozori mavzesida ochilgan yangi usul rus-tuzem maktabida o'qidi, u shu yerda Yevropa va rus madaniyati, adabiyoti bilan tanishadi. 1920-

yil-da Qo'qonda Toshmuhammad Qori-Niyoziy rahbarligida dastlabki pe-dagogika bilim yurti – dorilmuallimin tashkil etildi. Sharif ham shu dargohda tahsil oldi va uni 1924-yilda tamomladi. Bu dorilmualliminning bitiruvchilari keyinchalik "13 qaldir'och muallimlar" nomini olgan bo'lib, ular orasida Tesha Zohidov, Ulug' Tursunov, Usmon Beregin va boshqalar bor edi. 1925-yilda Moskada o'qiyotgan aka-isi Nishonboyning taklifi bilan Moskvadagi UzINPROSda (milliy res-publikalar maorifi uchun oliy ixtisosli pedagog kadrlar tayyorlash bilim yurti) o'qishga kirdi, biroq to'satdan kelgan kasallik tufayli Qo'qonga qaytishga majbur bo'ldi [1, 7–8].

1926-yilda Usmon Nosir, Lutfullo Olimiy, Abdulla Rahmatzoda, Muhiddin Xayrulla singari bir qator qo'qonlik ijodkorlar bilan birga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Qo'qon bo'limi tashkiliy hay'ati – "Qizil qalam" uyushmasini tuzishda ishtirok etadi.

U Qo'qonning eski shahar yoshlar tashkilotida tashkiliy ishlar bo'limi boshqaruvchisi va ishlar yurituvchisi, "Yangi Farg'ona" viloyat gazetasi mas'ul muharriri o'rinbosari, "Yangi Farg'ona" gazetasi bosh muharriri, "Kolxoz yo'li" gazetasi bosh

muharriri, Respublika yosh-lar tashkiloti gazetasi muharriri, "Qizil O'zbekiston" gazetasi bosh muharririning birinchi o'rinbosari, "Правда Востока" gazeta-si-ning maxsus muxbiri, viloyat "Kommuna" gazetasining mas'ul kotibi, shahar madaniyat va istirohat bog'i direktori, "Правда" va "Из-вес-тия" gazetalarining Farg'ona vodiysi bo'yicha muxbiri, Respublika fi-larmoniyasi Qo'qon shahri filiali direktori bo'lib faoliyat yuritgan. Bu yillarda u Farg'ona vodiysi qishloqlarida muntazam ravishda ilm-ma'-rifat, madaniyat tadbirlarini tashkil etishda ham faol ishtirok et-di. Sh.Rizo tashabbusi bilan sayyor tahririyat tuzilib, ko'chma ga-ze-ta chi-qarish yo'lga qo'yildi. 20-yillarda Oqtepa qishlog'ida tuzilgan yangi jamoa xo'jaligiga "Sharif Rizo" nomi berilgan edi [1, 44].

Sharif Rizoning "Yangi Farg'ona", "Mushtum", "Yer yuzi", "Gu-lis-ton", "Kolxoz yo'li" kabi viloyat va respublika nashrlarida "Sho-di-mat", "Dilshod", "Alqar", "Oshno", "Sur-atjon", "Sumbul", "Jurnalist" sin-gari 10 dan ziyod taxalluslar bilan yuzlab ocherk, hikoya, she'r va felyetonlari e'lon qilingan [2, 11]. Jumladan, "Yaxshi tush" (1939), "Xat va oqibat", "Da'vogar sust kelsa, qozi muttaham" (1940), "O'ch" (1940), "Ikki g'azal" (1941) kabi hikoyalarni, "Qor yog'di, izlar bosildi" (1938, 1960), "Iqbol", "Quloq og'rig'i dorisining nomi yoki Ba-variya aksenti" kabi qissalarni, "Qum" ("Farg'ona qissalari") ro-ma-nini (1939) yaratgan [3, 251]. "Ikki g'azal" ("Nazira") hikoyasi Muqimiy hayotiga oid bo'lsa, "O'ch" hikoyasida Zavqiy hayotining ayrim jihatlari tasvirlanadi [4, 226]. Respublika yosh tomoshabinlar teatri va Qo'qon shahar musiqali drama va komediya teatri uchun "Qo-zixona" (1938), "Ikki qushga bir tosh", "Jamol" (1941), "Musoboy ho-jining sinishi" (1941), "Muqimiy", "Hadya", "Tanxaridiy", "Sha-ri-at-da sharm yo'q" pyesalarini yozgan. Bu asarlar o'z vaqtida turli sa-bab-lar tufayli sahnalashtirilmagan.

Folklorshunos sifatida o'zbek xalq latifalari, topishmoqlari, maqol-matallarini yig'gan, natijada 1939-yili 6 kitobchadan iborat "Nasriddin Afandi latifalari" majmuasi nashr etildi. Bu kitoblardan jami 500 ga latifalar o'rin olgan. "Jamol", "Ikki qushga bir tosh", "Sha-ri-atda sharm yo'q" singari komediyalari bevosita xalq ertaklari aso-si-da yaratilgan. "Nasriddin Afandi – jahon adabiyotida so'nmas ob-raz" (1938), "Xalq san'atkorlari" (1940) maqolalari tilining ravonligi, il-miy jihatdan chuqur va ommabop tarzda yozilgani bilan bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan [5, 65–66].

Sh. Rizoning tarjimonlik faoliyati 30-yillar boshidan boshlanadi.

1931-yilda 20 yoshli yosh jurnalist (bu paytda u "Yangi Farg'ona" ga-zetasi bosh muharriri edi) M. Gorkiyning "Sazoyi" hikoyasini o'z-bek tiliga o'g'irgan. Tarjima "Yangi Farg'ona"ning 1932-yilgi son-la-ri-dan birida bosilib chiqqan. Sh. Rizo gazeta o'quvchilariga M. Gorkiy ijo-dini tanishtirish maqsadida kichik izoh ham yozadi. Navqiron tar-ji-mon o'z tengdoshlariga shunday murojaat qiladi: "Yozuvchilik ta-lan-tiga ega bo'lgan yoshlar uchun klassiklarimizning asarlari, ayniqsa hi-koyalari, povestlari, romanlari, dostonlari, hatto rus shoirlarining ayrim she'rlari eng yaxshi ijod maktabidir. Yosh talantlar A. S. Push-kin, N. V. Gogol, M. Y. Lermontov, N. A. Nekrasov, L. N. Tolstoy, A. P. Che-xov, M. A. Gorkiy, A. N. Tolstoy, M. A. Sholoxov va boshqa rus yozuv-chi-larining asarlarini imkon qadar ko'proq o'qishlari hamda ulardan ma-horat sabog'ini olishlari, qisqa va ifodali, shirali, chiroyli tilda yo-zish-ni, o'quvchida do'stlarga cheksiz hurmat-muhabbat, dushman-lar-ga nisbatan esa nafrat hislarini qo'zg'atishni o'rganishlari lozim". Bu hi-koya tarjimasida 30-yillar tarjimalariga xos bo'lgan xususiyatlar yaq-qol ko'zga tashlanadi. Yosh tarjimon asliyatdagi o'quvchini lar-zaga soluvchi, yurakni ezadigan dramatik ohangni muvaffaqiyatli saq-lab qololgan. O'zbek o'quvchisining endi shakllanayotgan didiga mos-lash uchun, o'zbek kitobxoni ruhiyatini hisobga olib bo'lsa ke-rak, asardagi shafqatsiz realistik ayrim tasvirlarni biroz yumshatish usu-lidan foydalanadi: "живот чудовищно вспух и страшно по-си-нел" – "qorniga yo'g'on tarasha bilan ko'p urgan bo'lsalar kerak, juda shi-shib, momataloq bo'lib ketgan", "лента кожи содрана" – "terisi in-gichka va uzunasiga shilib olinganga o'xshaydi", "рот его открыт, по-лон острых белых зубов" – "o'tkir oppoq tishga to'la o'g'zi" va ho-ka-zo [6, 63–65].

1937-yildan boshlab rus adibi Mixail Sholoxovning "Tinch oqar Don" romanini tarjima qilishga kirishdi. 1938-yilda romandan bob-lar "Guliston" jurnalida e'lon qilingan [1,61].

1939-yilda N. Chernishevskiyning "Nima qilmoq kerak?" roma-ni-dan 3-bobning "Vera Pavlovnaning korxonasi" qismi Sh. Rizo tarji-ma-sida "Guliston" jurnalida chop etildi. 1941-yilda og'ir kasallikdan azob chekayotganiga qaramay, "Tinch Don"ni o'zbek tiliga o'girishga ki-rishdi. 1941-yilda romandan parchalar kitobcha tarzida chop etildi [7]. Xuddi shu yili O'zdavnashr direktori N. Safarov tarjimonga yo'l-la-gan xatida shunday yozadi: "O'zbekiston badiiy adabiyot nashriyoti Siz-ga shuni ma'lum qiladiki, Siz tarjima qilgan "Tinch Don" asarining

ik-kinchi tomini nashr etish vaqtincha to'xtatildi. Nashriyot ushbu ki-to'v-dan 2-3 bosma taboq hajmdagi parchasini alohida kitob qilib chi-qa-rishga qaror qildi. Shu munosabat bilan to'rt nusxa shartnomaga im-zo chekib, bizga yuboring. Shartnoma tasdiqlangandan keyin Sizga te-gishli nusxasi jo'natiladi" [1,62]. Maktubda aytib o'tilgan rejalar, no-gahonda boshlangan urush tufayli bo'lsa kerak, amalga oshmay qoladi.

1940-yilda esa rus adabiyoti namunalarini tarjima qilib yurgan Sharif Rizo ingliz adibasi Garriet Bicher-Stouning mashhur "Tom tog'aning kulbasi" romanini o'g'irishni boshlaydi. Tarjima 1946-yilda tugallanadi va 1948-yilda O'znavnashrda bosilib chiqadi [8]. Sh. Rizo o'zbek kitobxonini bu yangi asar bilan chuqurroq tanishtirish uchun rus tarjimoni – K. Chukovskiyning "Bicher-Stou va uning kitobi" nom-li so'zboshisini ham qo'shib o'giradi [9, 3–16]. Mutarjim har bir so'z, iborani, ichki botiniy nutqni ham, dialoglarni ham juda topib, xalq jonli tiliga yaqinlashtirib ishlatganligi yaqqol ko'rinish turadi.

Og'zi mahkam, kayfi qochmoq, qotib qolmoq, chippakka chiqmoq, og'ir bo'lmoq, og'zini ochirib qo'ymoq, quti o'chmoq, burni ko'ta-ril-moq, epaqaga solmoq, quruq qolmoq, do'ppi tor kelib qolgan mahalda, po'stagini qoqmoq, ta'zirini bermiq, burni shishgan, qovog'idan qor yog'-moq, mulla bo'lmoq, kaltakka yotqizmoq, ichini it talamoq, uchib qol-moq singari o'nlab maqollardan ustalik bilan foydalanadi. Roman tar-jimasida toshparron, ro'ja, hamdamlashmoq, cho'chchanglamoq, goj-lik qilmoq, ihayyo tortmoq, g'udunglamoq, pandlik, bopta, serna-ser, shalab, selavalik, marhamatan, ayilish, sayid, hariqulodda, tumoq, sap-chima, tarafguzarlik, uddaburro, chayilkurak, epashanglik, muhab-bat-baxsh, majriq, g'o'lavur, muhofazat, mo'ndi, pashsha-lash-moq, yel-pin-di, jivillamoq, monandsizlik, tentak-alish, kajbas, gumur-moq, halala-hash-tu, gushna, shalayimlanmoq, paramon, firqillamoq, g'ilmaymoq ka-bi mavjud lug'atlarda uchramaydigan so'zlar uchraydi.

Quyidagi misollar Sh. Rizoning tarjimonlik mahorati haqida yetar-licha tasavvur bera oladi:

1. "Молодой мулат нахмурился..." [10,10]– "Yigitning yuzida xa-faqonlik kezdi" [9,34].
2. "Эй, Сэм! Сэм! Хозяин велит оседлать Билла и Джерри! – Что там еще стряслось?... Другим рассказывай! Я раньше тебя уз-нал. За кого ты меня принимаешь, за несмышлениша?" [10,23] – "Allo, Sem, Sem!.. Xo'jayin senga

Bill bilan Jerrini egarlasin dedi. – Nima uchun ekan, akasi?... Bu xabarni achangga ayt! Sem bu xabarni sendan burunroq eshitgan! Sem sen o'ylagandaqa pandavoqilardan emas!" [9,64]

3. "И поделом!.. Когда-нибудь спросится с него за все грехи, по-смотрим, что он тогда запоет! – Быть ему в аду, это как пить дать! – Туда ему и дорога..." [10,28] – "Mayli! Uning or-qa-si-dan jon egasi Azroilni yuborganda, ko'ramiz – u qanday sayrarkan! – Uning to'ppa-to'g'ri do'zaxga tushishi turgan gap. – U juda do'-zax-bob..." [9,75]

4. "Вот это здорово! – Дьявол, что ли, вселился в эту жен-щи-ну? Как дикая кошка прыгала!" [10,33] – "Toza bopladi-ya! – Bu xo-tin balo ekan! Muzlar ustidan, xuddi yovvoyi mushukdek sakrab o't-di-ya!" [9,85]

5. "Ах, черт возьми! Вот удача то! Правду люди говорят – судьба. Неужто это Том Локкер! Ну и подвезло мне! Какая приятная встреча!.." [10, 34] – "He sabil! Ana uni qarang! Xizirdek kelishini qarang-a! Bu Tom Loker-ku, azbaroyi xudo! Seni uchratgan baxtimdan o'rgilay!.. Kimning xayoliga kelishi mumkin edi!.." [9, 86]

6. "Да, женщины народ нудной, от них всего можно ждать" [10,35-36]. – "Xotinlarda bo'lgan ajoyib va g'aroyib xulqlarning ni-ho-ya-si yo'q!" [9,88–89]

7. "Ты сам знаешь, легко ли женщину поймать" [10,37]. – "Axir, xo-tin kishini tutish nima-yu, ajinani tutish nima, bab-baravar!" [9,93]

8. "Сердце разрывается, на нее глядя!" [10,43] – "Buni qarang, o'zjamol emasmi bu?" [9,105]

9. "На глазах у маленькой женщины блеснули слезинки" [10,46]. – "Uning ko'zida yosh tomchilari durlanardi" [9,112].

10. "Давно уже наступила ночь" [10,67]. – "Kvakerlar uyida baxt sabohi boshlandi" [9,162].

11. "И неспроста боишься: ведь во мне сидит сатана" [10,160]. – "Ehtiyot bo'l, mening jinim bor!" [9,358]

12. "Перестань буйствовать, Касси, будь благоразумной" [10,162]. – "Kassi, men bilan mo'min va jo'n bo'lsang" [9,359].

Asarning bu o'g'irmasi o'z davrida o'zbek kitobxonlari orasida kat-ta muvaffaqiyatga erishdi. O. Sharafiddinov, I. G'afurov singari ada-biyotshunos olimlar bolalik xotiralarini esga olganda ushbu kitobni tilga oladilar [11, 201]. Mustaqillik yillarida roman qayta nashrga tayyorlanib, lotin yozuvida bir

necha marta chop etildi [12].

Dramaturgiya bilan ham faol shug'ullangan muallif ozarbayjon adibi Ja'far Jabborlining xotin-qizlar ozodligi, erki va huquqini hi-mo-ya qilish mavzusidagi to'rt pardali "Sevil" dramasi o'zbek tiliga o'gir-gan [1,63].

Yuqoridagi tarjimalarni o'zaro birlashtirib turadigan bir jihat bor: ularning hammasida turli tuzumlardagi zulm, insonni tahqir-lash qoralanadi. Ayniqsa, 20–30-yillarda Sovet hukumati tomonidan Tur-kistonda sodir etilayotgan zo'ravonliklarning bevosita guvohi bo'l-gan Sh.Rizo ayni asarlarni tarjima uchun tanlagani bejiz bo'l-masa kerak.

1939-yilda Yozuvchilar uyushmasi a'zoliciga qabul qilingan adib 1948-yil 4-martda vafot etadi [4, 231].

Xulosa. Sharif Rizo bor-yo'g'i 39 yillik qisqa umrining 22 yilini o'z-bek adabiyoti, publitsistikasi rivojiga bag'ishladi, ilk folklor-shu-nos-lardan biri sifatida xalq og'zidan Nasriddin Afandi latifalarini yi-g'ib, nashr ettirdi, badiiy ijodning deyarli barcha turlarida: she'ri-yat-da, nasrda, dramaturgiyada, publitsistika va tarjimachilikda barakali meh-r-nat qildi, muharrir sifatida o'zbek milliy matbuoti taraqqiyotiga se-zilarli ta'sir ko'rsatdi. Bugun tarjimashunoslik, folklorshunoslik, ada-r-biyotshunoslik va jurnalistika tarixi bilan shug'ullanayotgan mu-ta-r-xas-sislar oldida Sharif Rizo singari "ko'lagada qolib" ketayotganlar ijo-r-dini tadqiq etish, mukammal tarjimai hollarini tuzish, asarlarini qi-dirib to-pish va qayta nashr etish singari vazifalar turibdi. Busiz mil-r-lyi ada-bi-yo-timizning muayyan davri haqida to'liq tasavvurga ega bo'r-lolmaymiz.

REFERENCES

- [1] – Адхам Олим. Фидойилик қиссаси ёхуд Шариф Ризонинг чакмоқ умри. – Фарғона: Фарғона, 2012. – 88 б.
- [2] – Қораев Т., Воҳидов Р. Адабий таҳаллуслар ҳақида. – Т.: Ўқи-тув-чи, 1978. – 64 б.
- [3] – Каримов Н. Абдулла Қодирий замондошлари. – Т.: Akademnashr, 2019. – 320 б.
- [4] – Қаюмов Л. Замондошлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 288 б.
- [5] – Жўраев М. Ўзбек фольклоршунослиги. – Т.: Firdavs-Shoh, 2021. – 592 б.
- [6] – Горький М. Хикоялар. – Т.: Ўздавнашр, 1953. – 112 б.

[7] – Шолохов М. Тинч Дон: романдан парча. – Т.: Ўздавнашр, 1941.

[8] – Бичер-Стоу Г. Том тоғанинг кулбаси. – Т.: Ўздавнашр, 1948. – 436 б.

[9] – Бичер-Стоу Г. Том тоғанинг кулбаси: 2-нашр. – Т.: Ёш гвардия, 1960. – 420 б.

[10] – Бичер-Стоу Г. Хижина дяди Тома – Москва, 1977. // <https://www.100bestbooks.ru/files/Beecher-StoweHizhinadyadiToma.pdf>

[11] – Шарафиддинов О. Оламнинг қалби ёхуд китоб менинг тақ-ди-рим-да. – Т.: Маънавият, 2012. – 264 б.

[12] – Bicher-Stou G. Tom tog'aning kulbasi: 1–2-kitoblar. – Т.: Ziyo nashr, 2020. – 240 б., 240 б.; Bicher-Stou G. Tom tog'aning kulbasi. – Т.: Nurafshon bu-siness, 2023. – 416 б.